

## ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KADRLAR POTENSIALINI OSHIRISHDAGI HUQUQIY ISLOHOTLAR VA ULARNING SAMARADORLIGI.

*SUBANOV Olimjon Suyarkul o'g'li*

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrasida  
katta o'qituvchisi, dotsent (+99893) 551-71-30

**Annotasiya.** Mazkur maqolada ichki ishlar organlari kadrlarining salohiyatini oshirishda huquqiy asoslarning, xususan, Kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksining o'рни va ahamiyati yoritilgan. Kodeksning xizmat intizomi, ma'naviy tarbiya va korrupsiyaga qarshi kurashdagi roli tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Ichki ishlar organlari, kadrlar salohiyati, xizmat intizomi, kasbiy madaniyat, Kodeks, huquqiy asoslar, islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurash, xizmatga yaroqlilik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ichki ishlar xodimi, xizmat tartibi, normativ-huquqiy hujjat.

## ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ ПО ПОВЫШЕНИЮ КАДРОВОГО ПОТЕНЦИАЛА ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ И ИХ ЭФФЕКТИВНОСТИ

**Аннотация.** В статье освещаются роль и значение правовых основ, в частности Кодекса профессиональной культуры и служебной дисциплины, в повышении квалификации сотрудников органов внутренних дел. Анализируется роль Кодекса в укреплении служебной дисциплины, морально-нравственном воспитании и борьбе с коррупцией.

**Ключевые слова:** Органы внутренних дел, кадровый потенциал, служебная дисциплина, профессиональная культура, Кодекс, правовая база, реформы, борьба с коррупцией, годность к службе, духовно-нравственное воспитание, сотрудник органов внутренних дел, порядок прохождения службы, нормативный правовой акт.

## LEGAL REFORMS TO INCREASE THE STAFFING POTENTIAL OF THE INTERNAL AFFAIRS BODIES AND THEIR EFFICIENCY

**Annotation.** The article highlights the role and significance of legal frameworks, in particular the Code of Professional Culture and Service Discipline, in improving the qualifications of employees of internal affairs agencies. The role of the Code in strengthening service discipline, moral and ethical education and the fight against corruption is analyzed.

**Key words:** Internal affairs bodies, personnel potential, service discipline, professional culture, Code, legal framework, reforms, fight against corruption, fitness for service, spiritual and moral education, employee of internal affairs bodies, procedure for service, normative legal act.

Bugungi kunda mamlakatimizda ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish ya'ni uni fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlaydigan adolatli va xalqqa yaqin organga aylantirish dolzarb masala sanaladi. Buning uchun esa dastlab soha xodimlarining salohiyatini oshirish talab etiladi. Ichki ishlar organlarida kadrlarning salohiyatini oshirish sohada tub islohotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-sonli qarori bilan qabul qilingan Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksi shunday muhim mexanizmlarning yaratilishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat sanaladi. Bu Kodeksning qabul qilingani ham barcha darajadagi shaxsiy tarkib kadrlarining faoliyati faqat qonun va normativ-huquqiy hujjatlarga tayanib amalga oshirilishining belgilangani bilan ham ahamiyatli sanaladi. Sababi Kodeks ichki ishlar organlari kadrlarini uchta ustuvor yo'nalish ya'ni, birinchidan, inson qadrini chuqur anglaydigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatli, burchiga sodiq va aholini rozi qiloladigan, ikkinchidan, Vatan va xalq oldidagi burchini chuqur anglaydigan va yuksak mas'uliyatli, uchinchidan, korrupsiyagen holatlarga murosasiz hamda o'zining va ichki ishlar organlarining obro'sini saqlay oladigan ruhda tarbiyalashni nazarda tutgan [1].

Shuningdek, ushbu Kodeksda Respublikamizda ichki ishlar organlari kadrlari bilan bevosita ishlovchi Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti yangidan tashkil etilgani ham ichki ishlar organlari faoliyati takomillashib, uning samarasi oshatganini qayd etish lozim. Bu borada mazkur Departamentning oldiga ichki ishlar organlarida xizmatga qabul qilish bo'yicha nomzodlarni to'g'ri, xolis adolatli va ochiq hamda sodda tartibda byurokratik

to‘siqlarsiz tanlash hamda kadrlarning dunyoqarash va bilimni shakllantirish maqsadida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni muntazam yo‘lga qo‘yish, shuningdek, tizimda xizmatning o‘ziga xos xususiyatini e’tiborga olgan holda manzilli psixologik tadbirlarning joriy etilishi yoxud istiqbolli yosh kadrlarning zahirasini shakllantiirishning yangi mexanizmini yaratish yoki jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishning xususiyatidan kelib chiqib shaxsiy tarkibning jangovar va jismoniy tayyorgarligini oshirishning muntazam tizimini yaratish kabi muhim masalalarning qo‘yilgani e’tiborga molik bo‘ldi. Shu o‘rinda korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olish uchun ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ishlash, xizmat olib borish qoidalariga qat’iy amal qilish, shaxsiy tarkib va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoyalash tizimini to‘liq raqamlashtirishni amalga oshirish ustida ishlanayotgani ham diqqatga sazovor masala hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari kadrlari uchun bugungi davr va davlatimizning amalga oshirayotgan tub islohotlari hamda xalqimizning talablaridan kelib chiqib tegishli talablarni belgilanayotganida ham ko‘rinadi. Kodeksda belgilangan qoida va talablarni bilish, ularga qat’iy va so‘zsiz amal qilish har bir kadr uchun majburiy ahamiyatga egaligi bugungi kunda ichki ishlar organlari tizimi kadrlarining salohiyatini oshirishni zamonning o‘zi talab qilayotganini anglatishi shubhasiz. Kodeksda belgilangan qoida va talablarning ichki ishlar organlari kadrlari tomonidan ularning mehnatfaoliyatida samaradorlikka erishish yoki uning xizmat intizomini baholashda asosiy mezon sifatida mustahkamlanayotgani normativ-huquqiy hujjatning zaruratini bildiradi.

Ichki ishlar organlari kadrlari tomonidan Kodeksdagi qoida va talablarga amal qilmaslik yoxud ularning qo‘pol tarzda buzilishi kadrning tizimdagi xizmatdan bo‘shatilishigacha bo‘lgan intizomiy chora qo‘llanilishiga asos bo‘lishining mustahkamlanayotgani ichki ishlar tizimida protsessual hujjatga zarurat borligini ko‘rsatadi.

Kodeksning barcha darajadagi hududiy, sohaviy va tarmoq ichki ishlar organlaridagi boshliqlarning o‘z qo‘l ostidagi kadrlar bilan birgalikda uning mazmunini tushunishi borasida turli tarbiyaviy va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar asosida tashkil etishga hamda kadrlarning oilalarida maishiy muammolarni o‘rganib borishiga e’tibor qaratilayotgani ichki ishlar tizimida ushbu huquqiy aktning eskirgan joylarini olib tashlab, yangilarini o‘rnatayotgani yoki barcha tarmoq sohalarini tartibga solishga qaratilganini ham bildiradi [2].

Kodeks ichki ishlar organi kadrlari, shuningdek, Ichki ishlar vazirligi ta’lim muassasalari kursantlari va tinglovchilarining xizmat va xizmatdan tashqari faoliyatida

odob-axloq intizomiga qo‘yiladigan talablarni belgilab, boshliqlar va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarni hamda ularga nisbatan rag‘batlantirish va intizomiy jazo choralarni qo‘llash masalalarini tartibga soladi.

Kodeksning yana bir muhim jihati, ichki ishlar organlari kadrlari tomonidan shaxsiy vaj yoki boshqa sabablarga ko‘ra uning qoidalari buzilishiga yo‘l qo‘yilmasligida ham ko‘rinadi. Ya‘ni Kodeksning qoida va talablari dastlab barcha kadrlar va ta‘lim muassasalari kursant hamda tinglovchilari tomonidan o‘rganilib, o‘zlashtirilib keyin unga hamma birdek amal qilishi muhim hisoblanadi. Va uning protsessual ahamiyati ham shunda ko‘rinishi bejiz emas.

Yangi Kodeksning ichki ishlar organlari kadrlari uchun protsessual ahamiyati birinchidan, kasbiy madaniyat qoidalari qaysi lavozimnegallashidan qat‘iy nazar, kadrlarning xizmat va xizmatdan tashqari vaqtda odob-axloqi va xizmatda o‘zini tutishning majburiy asosiy talab va mezonlarini o‘zida ifodalaydi.

**Ikkinchidan**, ichki ishlar organlarida xizmat intizomi kadrlar va kursant yoki tinglovchilar tomonidan mazkur Kodeks talablariga qat‘iy va so‘zsiz amal qilish hamda har bir kadrning xizmat burchini yuksak darajada anglashi yoki qo‘yilgan vazifalar uchun shaxsiy javobgarligini anglashini bildiradi.

**Uchinchidan**, boshliq yuksak kasbiy mahorat, qonuniylik talablari hamda qasamyodga rioya etishda kadrlarga namuna ko‘rsatishi, tashabbus, intilish va xizmatlarini rag‘batlantirishi, shuningdek, xizmat intizomi buzilgan holatlarda ta‘sir choralari qo‘llanilishini ta‘minlashi hamda noqonuniyligi yaqqol ko‘rinib turgan va xizmat faoliyatiga aloqasi bo‘lmagan buyruq va topshiriqlar bermasligi kerak.

**To‘rtinchidan**, ichki ishlar organlarida kasbiy madaniyat qoidalari va xizmat intizomi talablariga amal qilish kadrlarda yuksak ongu tafakkurni shakllantirish, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni izchil olib borish, shuningdek, ularga nisbatan rag‘batlantirish va intizomiy jazo choralarni qo‘llash orqali ta‘minlanadi.

**Beshinchidan**, har bir kadr boshliqning unga nisbatan qonunga zid yoki nohaq harakatlari ustidan yuqori turuvchi rahbar yoki xizmat joyidagi shaxsiy xavfsizlik bo‘linmasiga yozma shikoyat berishga haqli.

Umuman olganda, Ichki ishlar organlari kadrlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksi tizimda quyidagi samarali natijalarga olib keladi. Birinchidan, ichki ishlar organlari bilan xalqning o‘zaro yaqinlashuviga hamda xalqning ushbu davlat organiga nisbatan roziligi va ishonchi ortishiga olib keladi. **Ikkinchidan**, kadrlar va tizim faoliyatining takomillashuvi, mas‘uliyatining oshishiga yoxud obro‘si yuksalishiga asos bo‘ladi. **Uchinchidan**, kadrlarning Vatan va xalq oldidagi burchini



chin dildan angalab, unga mas’uliyat va tashabbuskorlikhissi bilan yondashib, ularda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik va o‘z kasbiga sadoqat tuyg‘usining shakllantirilib, sodir etilishi mumkin bo‘lgan turli nojo‘ya xatti-harakatlar, suiiste’molchilik va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olishga zamin yaratadi. **To‘rtinchidan**, ichki ishlar organida qonun ustuvorligiga hamda ichki ishlar organi kadrining qasamiyodiga sodiq bo‘lish, faqat xalq va davlat manfaatlariga xizmat qilishdan iborat bo‘lgan o‘z xizmat burchini so‘zsiz bajarishga erishiladi. **Beshinchidan**, ichki ishlar organida boshliq unga bo‘ysunuvchi kadrlar tomonidan Kodeksga amal qilinish natijasida buyruq va topshiriqlar bo‘ysunish tartibi faqat uning talabidan chiqmasligiga erishiladi. **Oltinchidan**, ichki ishlar organlari kadrlarining ijtimoiy faolligi, huquqiy ong va huquqiy madaniyati shakllanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-10-sonli qarori.
2. Yuridik ensiklopediya / Yuridik fanlar doktori, professor U.Tadjixanovning umumiy tahrirda. – T.: “Sharq”, 2001. – 189-bet.

Research Science and  
Innovation House

